

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA FIZIKANING YADRO FIZIKASI BO‘LIMINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘QITISHNING ILMIIY-METODIK ASOSLARI

*Yusupov Dilmurod Abdurashidovich, NamDPI, katta o‘qituvchi PhD
Musajonova Mashhuraxon Otabek qizi, NamDPI, 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Yadro fizikasining murakkab mavzularini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi orqali o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchiloyihalash asosidagi o‘quv usullari, ulardan foydalanish natijalari hamda amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlari: yadro fizika, innovatsion texnologiyalar, loyihalash, o‘qitish metodikasi, samaradorlik, inkreativ o‘quv usullari.

Аннотация: Представлены проектные методы обучения, служащие повышению научного кругозора и интереса студентов к преподаванию сложных тем ядерной физики на основе современных педагогических технологий, результатов их использования и возможностей практического применения.

Ключевые слова: ядерная физика, инновационные технологии, дизайн, методика обучения, эффективность, креативные методы обучения.

Abstract: Project-based teaching methods are presented, which serve to enhance the scientific outlook and interest of students in teaching complex topics of nuclear physics based on modern pedagogical technologies, the results of their use and the possibilities of practical application.

Keywords: nuclear physics, innovative technologies, design, teaching methods, efficiency, creative teaching methods.

Zamonaviy dunyoda fan va texnologiyalar sohasidagi ilmiy yutuqlar ta’lim jarayonlariga jadal ravishda kirib kelmoqda. Xususan, yadro fizikasi sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini yanada samaradorligini oshirish imkonini beradi. Umumiy fizikada yadro fizikasi bo‘limi nazariy jixatdan murakkab tushuntiruv apparatlar, zamonaviy yadroviy jarayonlar va ularning nazariyalari bilan boy bo‘lib, o‘quvchilarning bu jarayonlarni chuqurroq tushinishi uchun samarali metodikalardan foydalanish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyarning joriy etilishi o‘qitish jarayonida yadro fizikasi faniga nisbatan qiziqishini oshirishga yordam beradi va natijada bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi kunda innovatsion texnologiyalarga bo‘lgan talab yuqori darajada va bevosita ta’lim tizimiga ham allaqachon kirib kelgan. Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar bilan fanni o‘quvchilarga taqdim etish fanga bo‘lgan qiziqishini, bilim va ko‘nikmalarni oshirish asosiy masala sifatida qaraladi.

Dunyodagi ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlarada yadro fizikasi o‘qitilishida zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llanmoqda. Shuningdek

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishlarda ishlar amalga oshirilmoqda, ammo yanada samarali va innovatsion usullarga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajadagicha qolmoqda. O'zbekistonda yadro fizikasi sohasida faoliyat olib boruvchi bir nechta institutlar mavjud. Hozirgi kunda esa ushbu ta'lim maskanlarida bir qancha yangiliklar olib borilmoqda. Ularning ba'zilari quyidagilar:

1. O'zbekiston milliy universitetida yadro fizikasi va atom energiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Fizika fakultetida esa yadro fizikasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yadro fizikasi institutida yadro tadqiqotlari va ilmiy ishlanmalar bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

3. O'zbekiston atom energitikasi agentligi: Bu agentlik yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida, energetika isloxtlari va yadro texnologiyalarini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Sanoat va yangi texnologiyalar vazirligida esa yadro energiyasi va texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar va rivojlanish yo'llari bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshiradi.

Bu institutlar yadro fizikasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mutaxassislar tayyorlash va yadro energiyasidan foydalanish bo'yicha ishlar olib boradi. O'zbekiston yadro fizikasi sohasida xalqaro hamkorlikni ham rivojlantirmoqda.

Yadro fizikasi hozirgi kunda fundamental va amaliy fan sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Uni o'qitishda ilmiy texnik va texnologik yangiliklarni qo'llash imkoniyati o'quvchilarga mavzuni chuqurroq anglash va tezroq o'zlashtirishga va yadroviy jarayonlarning zamonaviy tasavvurlari haqida virtual tarzda tasavvurni uyg'otish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mavzu bilan qiziqtirish hamda fanlarni bog'liqlikni ta'minlashga e'tabor qaratish zarur.

Bugungi kunda jahon energetika sohasida atom energetikasi global energiya ta'minotida muhim rol o'ynaydi. Yadro reaktorlari elektr energiyasini ishlab chiqarishda samarali va kam uglerodli energiya manbai sifatida ko'riladi. Bu, ayniqsa, iqlim o'zgarishi va energiya xavfsizligi masalalari doirasida dolzarbdir.

Yadro energiyasi bilan bog'liq xavfsizlik masalalari, shu jumladan, yadro reaktorlari va radioaktiv chiqindilarni boshqarish, qayta ishlash, jamoatchilik va hukumatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli yadro reaktorlarining zamonaviy 3+ avlodining takomillashuvi hisobiga yadro xavfsizligi standartlari va nazorat mexanizmlari doimiy ravishda yangilanmoqda.

Yadro fizikasi sohasida yangi texnologiyalar, masalan, yadro sinovlari, yadro tibbiyoti (radioterapiya) va yadro fizikasi asosida yangi materiallar ishlab chiqish kabi tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar tibbiyot, sanoat va ilm-fan sohalarida qo'llaniladi. Yadro fizikasi ta'limi va kadrlar tayyorlash ham dolzarb masalalardan biridir. Yadro fizikasi bo'yicha mutaxassislar yetishmasligi, ilmiy tadqiqotlar va sanoat ehtiyojlarini qondirish uchun muhimdir.

Yadro fizikasi hozirgi kunda ko'plab sohalarda, jumladan, energiya, tibbiyot, xavfsizlik va ilmiy tadqiqotlarda dolzarb ahamiyatga ega.

Yadro fizikasining ilmiy-texnik yutuqlari asosida yotuvchi yadroviy jarayonlarning zamonaviy nazariyalarini o'quvchilarga samarali va qiziqarli usulda o'qitish muammosi mavjud. An'anaviy o'qitish metodikalari murakkabligi, mavzularni o'quvchilarga yetarli darajada yetkazib bera olmaslik, o'quvchilarning qiziqishini kamaytirib, o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir qilmoqda. Shuning uchun innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishni yo'lga qo'yish zarur. Yadro fizikasi sohasidagi tadqiqot muammolari ko'p va xilma-xildir. Quyida ba'zi asosiy muammolar keltirilgan:

1. Yadro energetikasining xavfsizligi: yadro reaktorlari va ularning ishlashi bilan bog'liq xavfsizlik masalalari, shu jumladan, yadro avariyalari, radioaktiv chiqindilarni boshqarish va yadro materiallarining noqonuniy foydalanishi kabi muammolar;

2. Radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash: yadro energiyasidan foydalanish natijasida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilarni xavfsiz saqlash va utilizatsiya qilish masalalari hali ham yechimini kutmoqda. Ularning uzoq muddatli saqlanishi va atrof-muhitga ta'siri haqida ko'plab savollar mavjud;

3. Yadro qurollarining tarqalishi: xalqaro yadro tashkiloti MAGATE hamkorligidagi yadro qurollari va ularning nazoratini kuchaytirish, shuningdek, yadro qurollarini kamaytirish bo'yicha xalqaro kelishuvlarni amalga oshirish muammolari dolzarbdir;

4. Yadro sinovlari: yadro sinovlarini amalga oshirish va ularning ta'sirini o'rganish, shuningdek, yangi yadro materiallarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish jarayonlari murakkab va ko'p jihatdan noaniqligi;

5. Yadro fizikasi va energiya manbalari: yadro energetikasining samaradorligini oshirish, yangi avlod yadro reaktorlari (masalan, 3+ avlod yadro reaktorlari) va yadro sintezini amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar;

6. Yadro tibbiyoti: yadro fizikasi tibbiyotda, ayniqsa, radioterapiya va diagnostika usullarida qo'llaniladi. Bu sohada yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni klinik amaliyotga joriy etish muammolari;

7. Iqlim o'zgarishi va energiya xavfsizligi: atom energetikasi iqlim o'zgarishi bilan kurashishda muhim rol o'ynashi mumkin, sababi an'anaviy usulga nisbatan bu jarayonda kislorod talab etilmaydi va is gazi chiqarilmaydi. Ammo bu sohada ham ko'plab muammolar va qarama-qarshiliklar mavjud.

Bu muammolar yadro fizikasi sohasidagi tadqiqotlar va rivojlanishlar uchun yangi imkoniyatlar va dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotimiz jarayonida yadro fizikasi mavzulari yuqori darajadagi abstraksiyaga egaligi va fizikaning murakkab sohalaridan sanalgani uchun dastlab yadroviy jarayonlarda ro'y beradigan o'zgarishlarni anglab olishda yuzaga keladigan muammolar aniqlanib, ularni hal etish yo'llarini belgilab olish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuning uchun fanning o'quv mazmunini tanlanishida nazariy bilimlar tushunchalarini fizik mohiyatini idrok etishda, ya'ni

fizik hodisa, fizik kattalik, model, g'oya, nazariya, atom yadrosi, massa nuqsoni, bog'lanish energiyasi, radioaktivlik, ionlashtiruvchi nurlar kabi tushunchalarni fundamental qonunlarga mos kelishi va ilmiyligi ta'minlanishi lozim. Shu ma'noda yadro fizikasi mazmunini yoritishda atom yadrosi, yadroviy o'zgarishlar, atom energetikasi va ionlashtiruvchi nurlarni tirik organizmlarga ta'siri kabi keng mazmunli va ularni to'la qamrab oladigan, mavzuga mos innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish bilan talabalar ongida yadroviy jarayonlarning zamonaviy tasavvurini shakllantirish va rivojlantirish orqali o'qitish metodikasini rivojlantirish zaruriyati mavjud.

Tadqiqotlar davomida taqqoslash, eksperimenish va kuzatishlar metodlari qo'llaniladi. Eksperimental va nazorat guruhlar bilan olib borilgan dars jarayonlari tahlil qilinadi. Inkreativ dasturlar va simulyatsiyalardan foydalanish orqali yadro fizikasi mavzularining tushuntirish samaradorligi baholanadi.

Quyida yadro fizikasini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalar va metodlar keltirilgan:

1. Interaktiv ta'lim platformalari

- Onlayn kurslar va vebinarlar: O'quvchilar uchun yadro fizikasiga oid onlayn kurslar va vebinarlar tashkil etish. Bu platformalar orqali o'quvchilar mutaxassislar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

- O'quv dasturlari: Interaktiv dasturlar yordamida yadro fizikasining asosiy tushunchalarini o'rganish. Masalan, simulyatsiya dasturlari orqali yadro reaksiyalarini ko'rsatish.

2. Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar

- Virtual laboratoriyalar: O'quvchilarga yadro fizikasidagi tajribalarni virtual muhitda o'tkazish imkonini beruvchi dasturlar. Bu orqali xavfsizlik muammolarini hal qilish va tajribalarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

- Simulyatsiya dasturlari: Yadro reaksiyalarini va boshqa jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish.

3. Multimedia va vizual materiallar

Video darslar: Yadro fizikasining murakkab tushunchalarini tushuntirish uchun video darslar tayyorlash. Bu darslar animatsiyalar va grafikalar yordamida ko'rsatilishi mumkin.

- Infografikalar: Yadro fizikasiga oid ma'lumotlarni vizual tarzda taqdim etish. Bu o'quvchilarga ma'lumotlarni tez va oson qabul qilish imkonini beradi.

4. Gamer va gamifikatsiya

- O'yinlar orqali o'qitish: Yadro fizikasiga oid o'yinlar yaratish yoki mavjud o'yinlardan foydalanish. Bu o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi.

- Gamifikatsiya: O'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish, masalan, ball to'plash, mukofotlar berish va raqobat muhitini yaratish.

5. Kollaborativ o'qitish

- Guruh ishlari: O'quvchilarni guruhlarga bo'lib, yadro fizikasiga oid muammolarni hal qilishga jalb qilish. Bu usul o'quvchilarning fikr almashish va birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Loyihalar: O'quvchilarga yadro fizikasiga oid loyihalar ustida ishlash imkonini berish. Bu orqali ular nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

6. Mobil ilovalar

- O'quv ilovalari: Yadro fizikasini o'rganish uchun mobil ilovalar yaratish. Bu ilovalar orqali o'quvchilar har doim va har joyda o'qish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

- Interaktiv testlar: O'quvchilarning bilimlarini baholash uchun mobil ilovalar orqali interaktiv testlar o'tkazish.

7. Yangi texnologiyalar

- Augmented Reality (AR) va Virtual Reality (VR): Yadro fizikasini o'rganishda AR va VR texnologiyalaridan foydalanish. Bu texnologiyalar o'quvchilarga yadro jarayonlarini real vaqt rejimida ko'rish imkonini beradi.

- 3D modellashtirish: Yadro fizikasi tushunchalarini 3D modellar yordamida ko'rsatish. Bu o'quvchilarga murakkab strukturalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan metodlardan foydalanish yadro fizikasining rivojlanish istiqbollari keng imkoniyat yaratib beradi.

Yuqoridagi fikrlardan shu kelib chiqadiki, innovatsion texnologiyalar qo'llagan eksperimental guruhda yadro fizikasiga oid bilimlarini o'zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lishini kuzatish extimolligi mavjuddir. Dastlabki tadqiqotlarimiz jarayonida o'quvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar asosida ushbu yondashuvning o'quvchilar qiziqishini oshirishi va murakkab mavzularni oson tarzda anglashga va shu mavzu asosida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi aniqlandi.

Xulosa. Ixtisoslashtirilgan maktablarida fizikaning yadro fizikasi bo'limini innovatsion texnologiyalar yordamida takomillashtirilgan o'qitish metodikasi o'quv jarayonini samaradorligini oshiradi. Interaktiv texnologiyalar, simulyatsiyalar va boshqa innovatsion vositalar yordamida o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishi va o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va yadroviy jarayonlarning zamonaviy nazariyalarini, murakkab ilmiy konsepsiyalarni samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi. Va shu bilan birgalikda yadro fizikasini rivojlanishi iqtisodiy, ilmiy, tibbiy sohalardagi rivojlanish jadaligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarga fan mazmunini innovatsion tarzda taqdim etish esa ularda ilmiy, amaliy va olamni anglashda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish jihatidan yetuk bo'lishlariga didattik vosita bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Smith, J. & Brown, L. (2018). Innovative Approaches in Nuclear Physics Education. *Physics Education Research Journal*.

2. Yusupov D.A. Kompyuter texnologiyalari yordamida yadro fizikasini o‘qitish samaradorligini orttirish usullari // *Zamonaviy ta’lim. Metodik jurnal*. – Toshkent, 2022. - №2. – B. 52-57

3. Yusupov D.A., Qo‘chqorov H.O. Turli xildagi energiya manba’lari xavfsizlik va istiqbol darajalarini taqqoslash orqali o‘rganish usullari // *Zamonaviy ta’lim. Metodik jurnal*. – Toshkent, 2022. - №5. – B. 16-24.

4. Yusupov D.A. Yadro fizikasi bo‘limini o‘qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish // *Fizika, matematika va informatika jurnali*. – Toshkent, 2023. – №1. – B.75-84.

5. Yusupov D.A. Benefits of improved teaching methodology for teaching nuclear physics sections in universities based on innovative technologies // *World Bulletin of Social Sciences (WBSS)*. Year: 2023, Issue: 2, Volume: 19 – P. 86-91

6. Qo‘chqorov X.O., Yusupov D.A Fundamental fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari : *Academic Research in Educational Sciences*. Volume 2. Uzbekistan 2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-448-455.p.448-455.

7. Abdugaffor Khurmamatov, Abdurahim Matkarimov, Alisher Auesbaev, Usnatdin Utegenov Results Of Experiments On Studying The Composition And Purification Of Technical Water Of Oil And Gas Processing Plant // *Processes of Petrochemistry and Oil Refining* 2023.- №4